

Pieter Kuchera

*Yohannes Gutenberg nomidagi
Maynts Universitet (Germaniya)*

Turkologiya kafedrasi professori

Toirova Guli Ibragimovna-

*BuxDU o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori*

Aziza Navro‘zova Aslonovna

Buxoro davlat universiteti

1- bosqich magistranti

Annotatsiya. *Maqolada qavs tinish belgisining o‘zbek va nemis tilida paydo bo‘lish tarixi, nemis tilida ishlatilgan dastlabki qavslarning vazifasi matndagi asosiy mazmuni tushunish uchun zarur bo‘lmagan qo‘shimcha ma‘lumotlarni ko‘rsatish uchun mo‘ljallanganligi haqida aytilgan. Qavslar keng ishlatiladigan tinish belgisi ekanligi va uning turlari misollar asosida tahlil qilingan. Birinchi qavslar dumaloq bo‘lib, tarjimalar, tushuntirishlar va sharhlar kabi qo‘shimcha ma‘lumotlarni ta‘kidlash uchun bosma nashrlarda ishlatilganligi e‘tirof e‘tilgan. Har ikki tilda ham qavs tinish belgisining ishlatilish o‘rinlari haqida aytilib, misollar asosida qiyoslab tushuntirilgan. O‘zbek tilida qavs belgisi boshqa tinish belgilari bilan ketma-ket kela olishi misollar asosida ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *qavs, nemis tili, klammer auf, klammer zu, jingalak qavslar, kvadrat qavslar, kontekst, o‘zbek tili, kirish gap, kirish so‘z,*

В УЗБЕКСКОЙ И НЕМЕЦКОЙ ПУНКТУАЦИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗНАКА В СКОБКАХ

Пётр Кучера

Университет Майнца (Германия)

Профессор кафедры тюркологии

Тоирова Гули Ибрагимовна-

*БухГУ Узбекского языкознания и журналистики
профессор кафедры, доктор филологических наук*

Азиза Наврузова Аслоновна

Бухарский государственный университет аспирант 1 ступени

Аннотация. *В статье описывается история появления скобок в узбекском и немецком языках, функция первых скобок, использованных в немецком языке, заключалась в указании дополнительной информации, которая не была необходимой*

для понимания основного содержания текста. Скобки являются широко используемым знаком препинания, и его виды анализируются на примерах. Первые скобки круглые и используются в печатных изданиях для выделения дополнительной информации, такой как переводы, пояснения и комментарии. В обоих языках места употребления вводного знака препинания упоминаются, сравниваются и поясняются на основе примеров. На основе примеров показано, что в узбекском языке знак скобки может стоять последовательно с другими знаками препинания.

Ключевые слова: скобки, немецкий язык, *klammer auf*, *klammer zu*, фигурные скобки, квадратные скобки, контекст, узбекский язык, введение, введение,

THE USE OF THE MARK PARENTHESES IN UZBEK AND GERMAN PUNCTUATION

Pieter Kuchera

Named after Johannes Gutenberg

Mainz University (Germany)

Professor of the Department of Turkology

Toirova Guli Ibragimovna

Bukhara State University Uzbek Linguistics and Journalism

professor of the department, doctor of philological sciences

Aziza Navro‘zova Aslonovna

Bukhara State University 1st year postgraduate student

Annotation. *This article is about the history of origin of the punctuation mark parentheses in Uzbek and German. The article also tells that the function of the first parentheses in German was to insert additional information that wasn't necessary for understanding the main text. It analyses the fact that parentheses are a common punctuation mark and explains their types, using examples. It draws attention to the fact that the earliest parentheses were circular, and they were used in printed texts to give extra information such as a translation, an explanation or a comment. The article explains the uses of parentheses in both languages and makes comparisons by means of examples. It illustrates how parentheses can be used alongside other punctuation marks in examples.*

Keywords: *bracket, German language, klammer auf, klammer zu, curly brackets, square brackets, context, Uzbek language, introductory sentence, discourse marker.*

Kirish. Qavs o‘zbek yozuvida XIX asrning oxirgi choragidan qo‘llanila boshlangan. Dastlab “Turkiston viloyatining gazetisi”da 1873-yilda ishlatilgan.

Yozuv madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishda punktuatsiyaning tinish belgilarining alohida ahamiyati bor. Tinish belgilari yozuvning boshqa vosi- talari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) hamda til birliklari (so‘zlar, morfemalar) bilan

ko'rsatish mumkin bo'lmagan turlicha fikriy munosabatlarni, psixologik va intonatsion holatlarni ifodalashda ham favqulodda muhim ahamiyatga ega.

Punktuatsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, yozma nutqni to'g'ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta'minlashda benihoya zaruriy vositadir. Ilmiy manbalarda, o'quv qo'llanmalarida tinish belgilarining qo'llanish usuli va tartibi punktuatsiyaning mantiqiy- grammatik, uslubiy va differentsiatsiya (farqlash) tamoyillari asosida belgilanishi ta'kidlanadi. Bunda mantiqiy-grammatik tamoyil nutqning semantik-grammatik tomonini yozuvda to'g'ri ifodalashga qaratilgan bo'lsa, differentsiatsiya tamoyili asosidagi qoidalar tinish belgilarining qo'sh holda qo'llanishidagi tartibni, gapdagi murakkab mazmuni aniqlashtirish kerak bo'lganda, ulardan foydalanish yo'llarini belgilab beradi. Uslubiy tamoyil tinish belgilarining qo'llanishini nutq uslublari asosida belgilashni nazarda tutadi, lekin bu unchalik to'g'ri emas, chunki muayyan bir uslubgagina xoslangan tinish belgisi bo'lmaydi. Zarurat tug'ilganda, har qanday uslubda ham xohlagan tinish belgisidan foydalanish mumkin

A.Zohiriyning "Imlo"si o'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi bo'yicha dastlabki ilmiy-metodik qo'llanma hisoblanadi. Uning 3-qismi tinish belgilarining qo'llanishi qoidalariga bag'ishlangan bo'lib, "Xatlar orasida rioyasi lozim ishorat va vaqf alomatlari" deb sarlavha qo'yilgan. Qavs belgisining xususiyatlariga ham to'xtaladi: "Ishorati" "()" (qavsayn yoki tafsir ishorati) bir so'zning ma'nosini so'z orasida bayon qilg'onda yoki so'z orasida biror mazmuni eska tushurub ketmoqchi bo'lg'onda, ikki chetiga qo'yilur. Chunonchi, Arz (er) yumaloqdur. Johil (nodon) kishilarning suhbatlari aqlni kamaytiruf".

Qavs belgisining ikkinchi alomatini muallif shunday izohlaydi: "... yoki so'z orasida biror mazmuni eska tushurub ketmoqchi bo'lg'onda ikki chetiga qo'yilur". So'zlarni to'plab bir-biriga baylab gap tuzishda "o'y" qulay anglashilsin deb turli belgilar ishlatiladir

Tahlillar.Nemis tilida "Klammer auf" va "Klammer zu" iboralari 16-asrda ixtiro qilingan qavslar bilan birga paydo bo'lgan. Qavslar matndagi asosiy mazmuni tushunish uchun zarur bo'lmagan qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Birinchi qavslar dumaloq bo'lib, tarjimalar, tushuntirishlar va sharhlar kabi qo'shimcha ma'lumotlarni ta'kidlash uchun bosma nashrlarda ishlatilgan. 17-asrda kvadrat qavslar paydo bo'ldi va matematik va ilmiy matnlarda qo'shimcha ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish uchun ishlatilgan. Vaqt o'tishi bilan qavslar nemis tilida yozma muloqotda keng qo'llaniladigan vositaga aylandi va "Klammer auf" va "Klammer zu" iboralari qavs ichidagi matn blokining boshi va oxirini ko'rsatish uchun odatiy holga aylandi.

Bugungi kunda qavslar va "Klammer auf" va "Klammer zu" iboralari yozma aloqa, dasturlash va matematika kabi turli kontekstlarda qo'llaniladi.

"Klammer auf" va "Klammer zu" nemischa iboralar bo'lib, mos ravishda " qavsni ochish" va "qavsni yopish" degan ma'noni anglatadi. Ushbu iboralar qavs ichidagi ma'lumotni boshlayotganingizni yoki tugatayotganingizni bildirmoqchi bo'lsangiz ishlatiladi. Misol uchun, agar siz xat yoki insho yozayotgan bo'lsangiz va qo'shimcha ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish uchun qavslardan foydalansangiz, qavs ichidagi ma'lumotlarni qachon boshlash va tugatishni ko'rsatish uchun "Klammer auf" va "Klammer zu" iboralaridan foydalanishingiz mumkin.

Nemis tilida qavslar asosiy jumlani tushunish uchun zarur bo'lmagan qo'shimcha ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi. Qavslarda qo'shimcha tushuntirishlar, misollar, tarjimalar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Qavslar odatda qavs () shaklida yoziladi, lekin kontekstga qarab burchakli qavslar [] yoki jingalak qavslar { } ham ishlatilishi mumkin.

Nemis tilida qavslar rus tilidagi kabi qo'shimcha ma'lumot yoki tushuntirishlarni ta'kidlash uchun ishlatiladi. Biroq, nemis tilida qavslardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

1. Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo'lagiga qo'shimcha izoh beruvchi so'z yoki birikmalar qavsga olinadi. Masalan:

Gestern (am 12. Mai) haben in der Türkei Parlamentswahlen stattgefunden.

Tarjimasi:

Kecha (12-mayda) Turkiyada parlament saylovlari bo'lib o'tdi.

2. Fikr manbayi, uning muallifi, ismi sharifi, manba haqidagi ma'lumotlar qavs ichida beriladi. Masalan:

„Cogito ergo sum“ (Descartes, 1647).

Tarjimasi: " O'ylayapman, u holda boraman" (Descartes, 1647)

3. Tasniflarda (nuqtadan farqli holda) yarim qavs ishlatiladi:

Man muss Folgendes beachten:

a) Nichtschwimmer dürfen das Schwimmbad nicht betreten.

b)....

Tarjimasi:

Shu qoidalarga diqqat qilish kerak:

a) Suzishni bilmaganlarning hovuzga kirishi taqiqlanadi.

b)...

4. Sahna asarlari matnidagi turli izoh, remarkalar qavs ichida beriladi:

Mutter: „Komm her!“ (Brigitte dreht sich um und geht auf ihre Mutter zu.)

Brigitte: „Was willst du?“

Tarjimasi:

Ona: "Qani kel!" (Brigitte orqaga qaytib onasi tomon boryapti.)

Brigitte: "Nima deysiz?"

5. Shoirning yoki yozuvchining ikkita ismi bo'lsa, haqiqiy nomi qavsga olinadi:

Ahmet Hamdi (Tanpınar)

6. Chet tilidan o'zlashgan so'zning haqiqiy shakli, o'qilishi yoki ma'nosi qavs ichida beriladi:

Im Englischen nennt man solche Wörter „false friends“ (falsche Freunde).

Tarjimasi:

Inglizchada bu kabi so'zlarga „false friends“ (soxta ekvivalanet) deyiladi.

7. Aniq bo'lmagan ma'lumotlar, ma'lum bo'lmagan yil, yer, voqea uchun qo'llanilgan so'roq belgisi qavs ichida ko'rsatiladi: Der erste osmanische Sultan Osman ist 1326 (?) in Söğüt verstorben.

Tarjimasi:

Ilk Usmonlilar sultoni Usmon 1326-yilda (?) So'g'dda vafot etadi.

Kvadrat qavslar (die eckigen Klammern) ishlatilish holatlari:

1. Qavs ichida qavs qo'llash kerak bo'lgan hollarda qavsdan so'ng burchakli qavs ishlatiladi: Orhan (osmanischer Herrscher [1326-1362])

Tarjimasi:

Orhan (Usmonlilar hukmdori[1326-1362])

2. Gapda yetishmayotgan so'zni yozish uchun yoki noto'g'ri yozilgan so'zning to'g'risini ko'rsatish uchun burchakli qavs ishlatiladi:

Kutilmagan paytda birqancha [bir qancha] qiziq harakat[lar] ko'rsatyapti.

1. Jingalak qavslar (die geschweiften Klammern) matn bloklarini belgilash uchun ishlatiladi, masalan, dasturlash yoki matematikada. Masalan: Die Funktion $f(x) = \{ x^2, \text{ wenn } x < 0; x, \text{ wenn } x \geq 0 \}$ is stetig.

2. Ba'zi lug'atlarda jinsni ko'rsatish uchun ishlatiladi (erkak/ayol):

Affe{f}-maymun

Qavs o'zbek tilida keng qo'llanadigan, ikki elementli (qo'shaloq), asosan, gap o'rtasida va oxirida ishlatiladigan chegaralovchi tinish belgisidir. O'zbek tilida qavslar quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo'lagiga qo'shimcha izoh beruvchi so'z yoki birikmalar qavsga olinadi. Masalan: Ulug'bek falakiyot (astronomiya) ilmiga katta hissa qo'shgan.

2. Gap ichida asosiy fikrga muallifning subyektiv munosabatini ifodalaydigan kirish so'z yoki birikma qavsga olinadi: Muqaddas esa (ajabo!) go'yo hech narsani sezmas, u nimagadir sevinib, hadeb kular edi. (O.Yoqubov)

3. Gap ichida asosiy fikrga muallifning subyektiv munosabatini ifodalaydigan kirish gap qavsga olinadi: Ko'ngil qo'yganlari boshqa edi, boshqalar edi. Uni biz bilamiz (Bilmaylar ketaylik, iloyim!). (E.A'zam)

4. Gap ichida asosiy fikrga qo'shimcha sifatida beriladigan izoh, ma'lumotni ifodalaydigan kiritma so'z yoki birikma qavsga olinadi: Uni birinchi marta To'la aka (T.Xo'jayev)ning repetitsiyasida ko'rganman. (A.Meli-boyev) Gulya Lagutina ichkarigi xonada o'ziga o'xshashib ketadigan (yo armani, yo ozari) birayol bilan achomlashib-cho'pillashib, pichir-pichir qila boshladi. (E.A'zam) Bunga kaminaning qulog'ida va

tevaragida kuchaygan (botiniy va zohiriy) shovqin ham sabab bo'ldi-yov. (E.A'zam) Farhodning taxminicha, kinoga bevosita daxldor bir- ikkitasini aytmasa, davradagilarning aksariyati (kelib- ketuvchilarini ham qo'shganda) anchayin san'at atrofida o'ralashib yuradigan, ammo o'zini uncha-munchadan kam sanamaydigan omadsizroq bir toifa edi. (E.A'zam) Bordi-yu, hushyorlik qilinmaganida, qora bozorga kamida 50 ming so'mlik (o'sha yillarning bahosida) zahri qotil mahsulot chiqib ketgan bo'lar edi. (A.Meliboyev) Jarohat o'rniga qov (kuydirilgan paxta) qo'ydi. (G'.G'ulom)

5.Gap ichida asosiy fikrga qo'shimcha sifatida beriladigan ma'lumotni ifodalagan kiritma gap qavsga olinadi: O'sar Hojarga uylangach (uylanganigayam yigirma yildan oshdi), ana shu eski uychaga taqab bir dahliz va bir mehmonxona-yotoqdan iborat boshpana qurib olgan edi. (Sh.Xolmirzayev) Ota ishongan odamlar (ular orasida Sarkor ham bor) quvg'unga tushmasa hali! (O.Yoqubov) Matluba indamay park darvozasiga tomon yo'naidi. Samigjon parkdan chiqishi bilanoq besh panjasini ko'rsatib (bu uning «besh so'm beraman» degani edi), duch kelgan birinchi mashinani to'xtatdi. (O.Yoqubov) Yana eshitganim (buni menga qishlog'imizdagi bir mayxo'r shinavanda asta qulog'imga shipshib qo'ygan) jin, alvasti aroq ichgan odamdan sal nari yurar ekan. (A.Meliboyev)

6.Fikr manbayi, uning muallifi, ismi sharifi, manba haqidagi ma'lumotlar qavs ichida beriladi. Masalan: Hasanxon qayda bo'lsa, qiy- chuv ham shunda bo'lur. (O'zbek xalq dostonidan)

7. Sahna asarlari matnidagi turli izoh, remarkalar qavs ichida beriladi: Masalan: Xon (yolg'iz): Shu tiriklikdan ham bezdirdilar meni.

8. Boshqa tildagi gapning yoki boshqa tildagi muayyan bo'lakning tarjimai qavsga olinadi: Mening birinchi maqolalarim qirg'iz tilida chiqadigan “Emgek danqi” (“Mehnat shuhrati”) nomli tuman gazetasida bosilgan. (A.Meliboyev).

9. Tasniflarda (nuqtadan farqli holda) yarim qavs ishlatiladi: So'zlar tuzilishi jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi: 1) sodda so'zlar; 2) qo'shma so'zlar; 3) juft so'zlar; 4) takroriy so'zlar; 5) qisqartma so'zlar.(Q.Sapayev)

10. Muayyan birliklarning variantlari qavs ichida beriladi: -gi (-g'i, -ki, -qi, -g'u). Bu affiks yasash asosi anglatgan harakat quroli, holat va narsa oti yasaydi. Odatda, jarangli va sonor undosh bilan tugagan asoslarga -gi, -g'i affiksi, jarangsiz undosh bilan tugagan asoslarga -ki, -qi affiksi qo'shiladi.(Q.Sapayev)

11. [] ko'rinishidagi qavsdan ham fpydalanish hollari ko'p uchraydi. Masalan: Egallik qo'shimchasi qo'shilganda shah[a]ri, o'r[i]ni so'zlaridagi "a", "i" tovushlari qoidaga ko'ra tushuriladi.

12. Qavsdan matematika fanida ham keng foydalaniladi. Masalan: $(57+39):2=?$

13. Boshqa tildagi gapning yoki boshqa tildagi muayyan bo'lakning tarjimai qavsga olinadi: OK. Continue the fly («Yaxshi. Uchishda davom eting»). (LSulton) Yes, sir(Xo'p bo'ladi, ser). (LSulton) Mening birinchi maqolalarim qirg'iz tilida chiqadigan «Emgek danqi» («Mehnat shuhrati») nomli tuman gazetasida bosilgan. (A.Meliboyev)

14. Gap ichida asosiy fikrga muallifning subyektiv munosabatini ifodalaydigan kirish so'z yoki birikma qavsga olinadi: Muqaddas esa (ajabo!) go'yo hech narsani sezmas, u nimagadir sevinib, hadeb kular... edi. (O.Yoqubov) Birov o'q borib uning qo'lga tekkan desa, boshqa birov (Asta 'furulloh!) naqd og'ziga tekkan deydi. (E.A'zam) Menga bitilgan xatni ikki kun (ikki kun-a!) saqlab yuribsiz, o'sha ikki kun mobaynida xayolan ikki yuz ming ko'chaga kirib chiqqanimni tasawur qilasizmi? (X.Do'stmuhammad) Tuyqus yon tomondan qo'llarida cho'qmor (ha, ha, rostakam cho'qmorl), korjoma kiygan ikki barzangi sahnaga kirib keldi. (E.A'zam)

15. Gap ichida asosiy fikrga muallifning subyektiv munosabatini ifodalaydigan kirish gap qavsga olinadi: Ko'ngil qo'yganlari boshqa edi, boshqalar edi. Uni biz bilamiz. (Bilmaylar ketaylik, iloyim!) (E.A'zam) Sizning xayollaringizni ostin-ustun qilgan o'zimdagi fazilatlarni (Rostdan ham, bormi ular?) topib, ardoqlab yashayman. (X.Do'stmuhammad) Boylarbo lsa na fuqaronibirchaqaga oladi (bunisi-ku mayii-ya), na mingboshini (mana munisiga chidab bo'lmaydil). Ochiqdan ochiq so'kadi, haqorat qiladi... (Cho'lpon)

16. Sahna asarlari matnidagi turli izoh, remarkalar qavs ichida beriladi: SOHIBQIRON. Yo'q! Bari Ollohdan. Yaratgan egamning xohishi shul erkan. O'z jannatidan joy ato qilg'ayl (Qalqonbekka). Dafn taraddudini ko'ringlar!

(Yuziga fotiha tortadi. Saragulni o'rnidan turg'izadi). Sen qachon kelding bu maskanga? (O.Yoqubov) OLIMJON (Alomatga qarabturib). Iye, buo'chibqopti-ku... (Robotning yelkasidagi blokni kavlashtira boshlaydi.) (Sh.Boshbekov)

O'zbek tilida qavs belgisi boshqa tinish belgilari bilan ketma-ket kela oladi. So'roq belgisi bilan ketma-ket kelishi mumkin. Masalan: Sizning xayollaringizni ostin-ustun qilgan o'zimdagi fazilatlarni (Rostdan ham, bormi ular?) topib, ardoqlab yashayman. (X.Do'stmuhammad)

Qavs belgisi vergul, ko'p nuqta bilan yoma-yon kelishi mumkin: Boylar bo'lsa na fuqaroni bir chaqaga oladi (bunisi-ku mayli-ya), na mingboshini (mana munisiga chidab bo'lmaydi!). Ochiqdan-ochiq so'kadi, haqorat qiladi... (Cho'lpon)

Qo'shtirnoq bilan ketma-ket ishlatilishi mumkin: Mening birinchi maqolalarim qirg'iz tilida chiqadigan "Emgek danqi" ("Mehnat shuhrati") nomli tuman gazetasida bosilgan. (A.Meliboyev).

Xulosa. Qavs o'zbek tilida keng qo'llanadigan, ikki elementli (qo'shaloq), asosan, gap o'rtasida va oxirida ishlatiladigan chegaralovchi tinish belgisidir. Mazkur tinish belgi nemis tilida ham bor. O'zbek va nemis tilida qavs tinish belgisining ishlatilish o'rinlari solishtirib qaralganda ko'plab o'xshash tomonlarni ko'rish mumkin. Ammo shunday misollarga duch kelamizki, bunda nemis tilida bu tinish belgisining qo'llanilish o'rinlari o'zbek tiliga qaraganda tubdan farq qiladi. Misollardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, gapdagi qavs belgisining ishlatilishi nafaqat qat'iy qoidalarga, balki ma'lum darajada muallifning xohish va niyatiga ham bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bahriddinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2015.—65 b.
2. Валгина Н.С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации.—М., 2004.
3. 2. Валгина Н.С. Русская пунктуация: принципы и назначение. – М., 1979.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.—Toshkent:O'zME, 2013.
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi, --Toshkent, 2019.
6. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi. – Toshkent, O'qituvchi, 1976.
7. Nazarov K. Tinish belgilari va yozma nutq.-- Toshkent:Fan,1974.
8. Shoabdurahmonov Sh. Punktuatsiya asoslari.—Toshkent, 1953.
9. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek tilida punktuatsiya.—Toshkent, 1955.
10. G'oziyev H. O'zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti. – Toshkent: Fan,1979